



**TASVIRIY SAN'AT VA CHIZMACHILIK FANLARINI CHUQURLASHTIRIB O'RGATISH
ORQALI O'QUVCHINING TAFAKKURINI KENGAYTIRISH**

Qilichbek Ochilbayevich Fayzullayev

Toshkent kimyo texnologiya instituti Yangiyer filiali assistant

Xusniddin Bobojon o'g'li Maxkamov

Toshkent kimyo texnologiya instituti Yangiyer filiali o'qituvchisi

Javoxir Faxriddin o'g'li Sharipov

Toshkent kimyo texnologiya instituti Yangiyer filiali o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6793072>

ANNOTATSIYA: Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at va chizmachilik o'quv fanining maqsadi barkamol, komil insonni uning badiiy madaniyatini shakllantirish, estetik va keng dunyo qarashlarini shakllantirishga qaratiladi. Tasviriy san'at o'quv fani har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy madaniyatga doir oddiy lekin inson va shaxs sifatiga kerakli bilimlarni beradi. Hech bir fan chizmachilik fanidek o'quvchilarning tasavvur hamda tafakkur qilish qobiliyatini o'stira olmaydi. Bu fanlarni chuqurlashtirib o'tish orqali, kuchli dizayn dasturchilar tayyorlashga asos bo'la oladi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, chizmachilik, o'quvchilar, badiiy, estetik, fan, tasavvur qilish, rasm.

ABSTRACT: The purpose of fine arts and drawing in general secondary schools is to form a well-rounded, perfect person, his artistic culture, aesthetic and broad world views. Fine arts education subject provides basic knowledge about artistic culture necessary for every person, but necessary for human and personality quality. No subject can develop students' imagination and thinking skills like drawing. By learning these disciplines, strong design can be the basis for preparing programmers.

Keywords: visual arts, drawing, pupil, artistic, aesthetic, science, imagination, painting.

KIRISH: XXI axborot kommunikatsion texnologiyalar asrida yashayotganligimiz uchun turli innavatsion texnika va texnologiyalardan foydalanish, xalqimiz tomonidan davlatimizning



kelajagi buyukligiga poydevor qo'yilayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Ibtidoiy odamlar o'z his-tuyg'ularini g'orlardagi devorlarga, tog'lardagi qoyalarga turli tasvirlar chizish orqali muhrlashga harakat qilishgan. Bu chizgi tasvirlar chizmachilikning ibtidoiy boshlanishi hisoblanib, o'sha davrdagi odamlarni fikr yuritishga majbur qilib, ongini rivojlantirishga turtki bo'lgan va mantiqiy fikrlash yordamida o'zining fazoviy tasavvur qilish qobiliyatini o'stirish orqali odam qiyofasiga kirgan. Demak, insoniyat tarixida ilk bor yaratilgan fan chizmachilik hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, ma'naviy va estetik dam olishi, ish vaqtida sarflagan quvvatini tiklashi kerak bo'ladi. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan san'at asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar, istirohat bog'laridagi landshaft dizayn va me'moriy obidalar arxitekturasi hamda bino islmiy va girihli naqshlar xullas ulardan zavqlanish orqali erishiladi. Ayrim o'quvchilar bu fanlarni kerak emasdek qarashadi lekin ko'pchilik o'quvchilar o'zlarining kelajak hayotlarida ma'lum miqdorda rasm ishlashga to'g'ri keladi. Rasm chizishni bilish faqat rassomlar, dizayner, me'mor uchungina emas, u o'qituvchilar (har bir fan) muhandislar, medisina vakillari, quruvchilar, agronomlar, harbiylar, haydovchilar, ichki ishlar hodimlari uchun ham zarurlidir. Ularning har biri o'z faoliyatlarida rasm, sxemalar, diogrammalar, eskizlar orqali so'z bilan tushuntirib bo'lmaydigan o'z g'oya va fikrlarni tasvirlab ko'rsatishga harakat qiladilar. Lekin, bu maktablarda tasviriy, amaliy, chizmachilik, memorlik san'atlaridan chuqur va keng bilim va malakalar berish kerak ekan, degan ma'noni bildirmaydi. Maktablarda o'z nomiga ko'ra umumiy o'rta ta'limda boshqa fanlar qatori tasviriy, amaliy va chizmachilik fanlaridan o'quvchi bilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni berishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.

Tasviriy san'at darslarining o'ziga xos, maxsus hisoblanib ular:

- borliqdagi va san'atdagi go'zalliklarni ko'ra bilish, idrok etish, tushunish va qadrlashga o'rgatish;
- estetik va badiiy didni o'stirish;



- o'quvchilar badiiy fikr doirasini kengaytirish;
- badiiy ijodiy qobiliyat va tasavvur olamini rivojlantirish;
- kuzatuvchilik, ko'rish xotirasi, chamalash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Maktabda tasviriy san'at va chizmachilik fanlarida rasm va chizma ishlashda amalga oshirishga yo'naltirilgan jarayonlar:

- san'atni kishilar hayotidagi ahamiyatini tushunib yetishi
- kompozitsiya ishlaganda uning qonun-qoidalariga rioya qilish
- naturaning tuzilishi, o'lchovlari, shakllari, ranglariga qat'iy rioya qilishi
- har qanday narsa asosida u yoki bu geometrik shaklyotishi
- rasm chizganda ufq chizig'ini chizib olish va yagona ko'rish nuqtasiga rioya qilishi

-fazoviy tasavvur qobiliyatini rivojlantirish-chizma grafik savodxonlik malakasini shakllantirish. Ilmiy(akademik tasvirlash) asoslariga yo'naltirishda u fan asoslarini chuqur o'zlashtirmasdan o'quvchilarda ilmiy dunyo qarashni shakllantirish mumkin emasligini bildiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Boshqa o'quv fanlari kabi bu uslub tasviriy san'at darslarida ham amalga oshiriladi. Akademik tasvirda o'quvchilar chiziqli va havo perspektivasi, yorug'-soya, rangshunoslik, kompozitsiya qonunlarini bilishlarini yaxshi bilishlari talab etiladi. Tasviriy san'at darslarini o'quvchilar mehnat tarbiyasini amalga oshirishdagi imkoniyatlari kata. Bu masalada tasviriy san'at darslarining barcha turlari-naturaga qarab tasvirlash, kompozitsiya, san'atshunoslik asoslari mashg'ulotlari mazmunida ko'zda tutilgan. Naturaga o'ziga qarab tasvirlash jarayonida o'quvchilar turmushda qo'llaniladigan turli buyumlar, sabzavot va mevalar tasvirini ishlaydilar. O'quvchi dars jarayonida o'quvchilar mustaqil ish boshlamaslaridan oldin naturani qiaqacha tahlil qilib, faqat buyumlar shakli, proportsiyasi, rangi va tuzilishi haqidagina emas, balki ularni yatatish ushun uchun sarflangan katta mehnat haqida ham gapirib beradi. Masalan turmushda



qo'llaniladigan aurim san'at buyumlarining o'ziga qarab rasmini chizdirishda o'qituvchi o'quvchilarga buyumlarning vazifasi, shakli, ularning qanday materiallardan yasalgani, buning uchun qancha mehnat sarflangani va hakoza haqida to'xtaladi.

XULOSA

Naturani tahlil qilish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning diqqatini buyumlar shaklining nafisligi, qismlarning proporsionalligi, shakl va rang uyg'unligi, mazmuni, shakl va vazifaning mosligi kabilarga jalb etadi. Natijada o'quvchilarda naturaga nisbatan emotsional, estetik munosabatlari oshadi. Hayotga bo'lgan muhabbati oshib, zavqlanish hissini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ikrom Rahmonov (2010). Chizmachilik. 9-sinf. O'qituvchi--Toshkent
2. Y.A. Ibragimov , (2014). Texnikaviy chizmachilik. Noshir. ISBN: 978-9943-4200-4-5
3. S.S. Abdullayev (2014). Tasviriy san'at o'qitish metodikasi, Fan va texnologiya. ISBN: 978-9943-4492-9-9
4. Sulstonov Haytboy (2014). Chizmatasvir(laboratoriya ishlari). Toshkent